

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
214 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	

TILSHUNOSLIKNING MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARI XUSUSIDA

Mansurova Nafisa Qamariddinovna

Buxoro davlat texnika universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mexanika muhandisligi sohasiga oid terminlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Texnik atamalarning shakllanishi, tarjimasi va o'zbek tilida moslashtirilishi jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqot davomida terminlarni o'zlashtirishdagi muammolar, ularning semantik aniq ifodalanishi va tilshunoslik mezonlari asosida standartlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mexanika muhandisligi, texnik terminlar, tarjima, semantika, lingvistik moslashuv, terminshunoslik.

Abstract: This article analyzes the linguistic characteristics of terms used in the field of mechanical engineering. It focuses on the processes of term formation, translation, and adaptation into the Uzbek language. The study examines the challenges in assimilating terms, their semantic clarity, and the prospects of standardization based on linguistic principles.

Keywords: mechanical engineering, technical terms, translation, semantics, linguistic adaptation, terminology studies.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические особенности терминов, применяемых в области машиностроения. Особое внимание уделяется процессам формирования, перевода и адаптации технических терминов в узбекский язык. Анализируются проблемы усвоения терминов, вопросы их семантической точности и возможности стандартизации на основе лингвистических критериев.

Ключевые слова: машиностроение, технические термины, перевод, семантика, лингвистическая адаптация, терминоведение.

KIRISH

Zamonaviy fanlararo tadqiqotlar kontekstida tilshunoslik va texnik fanlar o'rtasidagi integratsiya tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, texnik terminologiyaning lingvistik tahlili, ularning tarjimasi, moslashtirilishi hamda milliy termin bazasiga integratsiyalashuvi jarayoni alohida e'tibor talab qiladi. Mexanika muhandisligi sohasi bunga yorqin misol bo'lib, ushbu yo'nalishda qo'llanilayotgan atamalar, ularning lingvistik strukturasi va semantik o'ziga xosliklarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki amaliy tarjima, lug'atshunoslik, ilmiy uslubshunoslik kabi yo'nalishlar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

O'zbek tilida texnik terminlar, xususan mexanika muhandisligiga oid atamalarning to'g'ri tarjima qilinishi va qo'llanishi masalasi hanuzgacha murakkab va ziddiyatli yo'nalishlardan biri sanaladi. Ingliz, rus, nemis kabi ilg'or texnik tillardan o'zbek tiliga tarjima qilingan terminlar ko'pincha mazmunan noto'g'ri, kontekstdan yiroq yoki lingvistik jihatdan nomuvofiq holatda ishlatilmoqda. Bu esa nafaqat til madaniyatiga, balki texnik hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, darsliklar va ishlab chiqarish jarayonlarining sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolada mexanika muhandisligi terminlarining lingvistik xususiyatlari, ularning semantik-morfologik tuzilishi, tarjima muammolari hamda tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, texnik terminlar yaratishda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ijtimoiy-lingvistik omillar va zamonaviy global integratsiyaning o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi – mexanika muhandisligi terminlarini tilshunoslik mezonlari asosida tahlil qilish orqali ularni



standartlashtirish va o'zbek tilida mukammal ilmiy-texnik lug'at yaratishga ilmiy asos bo'lishidir. Bu borada interdissiplinar yondashuv – ya'ni tilshunos, tarjimon va texnik mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tilshunoslik va texnik fanlar kesishgan nuqtada olib borilayotgan tadqiqotlar global ilmiy makonda katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, terminshunoslik sohasida A.A. Reformatskiy tomonidan ilgari surilgan konseptual asoslar texnik atamalarining leksik-semantik tizimini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Reformatskiy terminlarni umumiy lug'aviy birliklardan farqli o'laroq, qat'iy aniq semantik chegaralarga ega bo'lgan, fan tilining yadrosi sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv mexanika muhandisligi terminlarini tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida texnik terminlarning o'zlashtirilishi va milliy tilga moslashuvi bo'yicha E.X. Karimovning ishlari e'tiborga loyiq. U o'z tadqiqotlarida texnik terminlarning tarjimasi va ularning muqobil variantlari orasidagi funksional tanlov mezonlarini ishlab chiqqan. Jumladan, "kuch momenti" atamasi o'rniga "aylantiruvchi moment" degan variantni ishlatish afzalligini semantik aniqlik va uzviylik bilan asoslagan.

Tilshunos A.B. Kadyrov tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa texnik terminlar tarjimasida morfologik moslik, sintaktik o'zlasha olish qobiliyati va fonetik moslik omillari tahlil qilingan. Ayniqsa, u rus va ingliz tillaridagi texnik atamalarni o'zbek tiliga o'girishda uchraydigan eng ko'p uchraydigan semantik tafovutlarga urg'u bergan.

Xalqaro miqyosda Lotte tomonidan ishlab chiqilgan terminologik nazariya, xususan, uning "termin yaratishning tizimli tamoyillari" haqidagi ishlari bugungi kunda ko'plab texnik sohalarda, jumladan, mexanika muhandisligida qo'llanilayotgan atamalarining shakllanish mexanizmini anglashda katta ilmiy qiymatga ega. Lotte terminlarni yaratishda lingvistik, mantiqiy va sistematik yondashuvni birlashtirishni taklif qilgan.

Shuningdek, G.O. Vinokurning "fan tili" haqidagi nazariy yondashuvi texnik atamalar va umumxalq tili o'rtasidagi farqlarni tushuntirishda muhim manba hisoblanadi. U texnik atamalarni nutqdagi maxsus ixtisoslashgan birliklar sifatida baholaydi, bu esa ularni umumtil elementlaridan ajratishda lingvistik mezonlarni belgilashda asos bo'ladi.

O'zbek tilida yaratilgan eng muhim amaliy manbalardan biri bu – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi va "Texnika va texnologiya" sohasiga oid maxsus lug'atlardir. Bu manbalar zamonaviy texnik atamalarni standartlashtirish va yagona lingvistik muhitda qo'llash imkonini yaratmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mexanika muhandisligiga oid terminlar lingvistik tahlili ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bunda tarjima, morfologik moslashuv, semantik aniq ifoda va ijtimoiy-madaniy kontekstlarning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan o'zbek, rus va ingliz tillaridagi texnik lug'atlar, mexanika muhandisligiga oid darsliklar hamda ilmiy maqolalar asosida yig'ildi. Tahlil qilishda strukturaviy-semantik, taqqoslama-lingvistik va diskursiv yondashuvlar qo'llanilib, terminlarning tarjima muammolari va lingvistik moslashuvi tizimli ravishda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, terminologiya – bu muayyan fan sohasi yoki faoliyat yo'nalishi bilan bog'liq atama va tushunchalar tizimidir. Mexanika muhandisligiga oid terminologiya texnik tasavvurlar, nazariy bilimlar hamda amaliy faoliyatni ifodalovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu atamalar zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, qurilish hamda energiya tizimlarining ishlash prinsiplarini tushuntirishda zarur hisoblanadi.

Mexanika muhandisligidagi atamalar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zgaruvchan bo'lib, ular leksik, grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur terminologiya

sohaga oid ilmiy axborot almashinuvining aniqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir til kontekstida ushbu sohaning terminlari o'ziga xos bo'lsa-da, ular orasida ko'plab umumiylik va o'xshashliklar mavjud.

Mexanika muhandisligi til va terminologiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu sohaga xos texnik jarayonlar, ilmiy izlanishlar hamda innovatsion yechimlar aynan atamalar orqali ifodalanadi. Ushbu soha fizika, matematika, materialshunoslik va boshqa tabiiy fanlarga asoslanadi, shu bois o'ziga xos ilmiy-texnik terminologiyaga ega.

Terminlarning to'g'ri va aniq qo'llanishi nafaqat ilmiy izlanishlarda, balki sanoat va amaliyotdagi texnologik jarayonlarni bayon etishda ham alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mexanika muhandisligi va unga oid terminlar tibbiyot, sanoat, arxitektura, energetika kabi ko'plab sohalarga daxldor bo'lib, turli soha mutaxassislari uchun ham zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, mexanika muhandisligi insonning texnik-ijodiy faoliyatining muhim bir yo'nalishi bo'lib, unda materiallarning xossalari, ularning ishlash mexanizmlari, harakat qonuniyatlari hamda turli jismoniy jarayonlar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu sohaga oid tilshunoslik yondashuvi terminlar, nazariy tushunchalar va konseptual asoslarni o'rganishni taqozo etadi. Jahon lingvistika va leksikografiya fanlarida mexanika muhandisligiga oid ilmiy qarashlar har bir tilning rivojlanishiga, mavjud muammolarni aniqlashga hamda intellektual asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Qolaversa, mexanika muhandisligidagi terminologiya texnik tasavvurlarni, nazariy bilimlarni va amaliy tadbirlarni ifodalaydi. Bu terminlar, odatda, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, qurilish va energiya tizimlarining ishlashini bayon qilish uchun zarurdir. Mexanika terminlarining tilshunoslik xususiyatlariga kelganda, ularning leksik, grammatik, semantik va pragmatik jihatlarini o'zgarishga uchrab turadi.

Ravshanki, tilshunoslikda leksika va grammatika orasida uzviy aloqa mavjud. Leksika – ya'ni so'zlarning ma'nolari va ularning qo'llanish holati – terminlarning aniq va tizimli bo'lishini ta'minlaydi. Mexanika muhandisligidagi terminlar orasida ingliz tilidagi ko'plab atamalarning o'zbek tiliga tarjimai va ularning moslashtirilish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi "force" atamasi o'zbek tilida "kuch" deb tarjima qilinadi.

Grammatik jihatdan, ingliz tilida ko'plab terminlar bir so'z bilan izohlanadi, o'zbek tilida esa ular ko'pincha kengaytirilgan shaklda yoki bir necha so'z orqali ifodalanadi. Masalan, "rotational motion" atamasi o'zbek tiliga "aylanma harakat" deb tarjima qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, ingliz va o'zbek tillarining grammatik xususiyatlari bu atamalarning qo'llanish shaklida farqlarga olib keladi.

Semantika atamasi tilshunoslikda bir so'z yoki so'z birikmasining ma'nosini tahlil etadi. Mexanika muhandisligidagi semantik muammolar ko'pincha boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan terminlarning ko'p ma'noliligini o'z ichiga oladi. Masalan, "stress" atamasi mexanikada "quvvat" yoki "bosim" ma'nosini bildirsa, psixologiya yoki tibbiyotda u tamoman boshqa ma'nolarda ishlatiladi.

Ingliz tilida ko'plab frazalar aniq va umumlashtirilgan ma'nolarga ega bo'lishi mumkin, biroq o'zbek tilida ularni mahalliyashtirishda ko'proq tushunarli va ilmiy jihatdan to'g'ri tarjimalar tanlanadi. Masalan, "shear force" atamasi ingliz tilida "kesuvchi kuch" deb yuritilsa, o'zbek tilida "kesuvchi kuchlar" yoki "kesish kuchi" tarzida tarjima qilinadi.

Mexanika muhandisligi sohasida, xususan, terminlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida semantik aniqlik, konseptual moslik va kontekstga mos qo'llanish asosiy mezonlar hisoblanadi. Quyida xuddi shu turdagi atamalarning ba'zi bir misollarini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval. Mexanika va muhandislik fanlarida qo'llaniladigan asosiy inglizcha terminlar va ularning o'zbekcha tarjimalari.

Inglizcha termin	O'zbekcha tarjima	Izoh
Force	Kuch	Jismga ta'sir etuvchi tashqi ta'sir natijasida harakat holatining o'zgarishiga sabab bo'luvchi omil.
Torque	Aylantiruvchi moment / Burama kuch	Muayyan nuqta atrofida jismlarni aylantirishga olib keluvchi kuch momenti.



Stress	Ichki zo'riqish	Material ichida tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga keladigan ichki qarshilik.
Strain	Deformatsiya / Cho'zilish	Material uzunligining tashqi kuch ta'sirida o'zgarishi holati.
Load	Yuklama	Tuzilmalarga yoki jismlarga ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar yig'indisi.
Displacement	Siljish	Jismning boshlang'ich holatidan yangi holatga o'tishi.
Friction	Ishqalanish	Ikki jism orasida yuz beradigan harakatga qarshi yo'naltirilgan kuch.
Velocity	Tezlik	Jismning yo'nalishli harakati biror vaqt birligi ichida qancha masofa bosib o'tishini ifodalaydi.
Acceleration	Tezlanish	Jism tezligining vaqt o'tgan sayin o'zgarish tezligi.
Mass	Massa	Jismning modda miqdorini ifodalovchi asosiy fizik hossa.

Bu atamalarning to'g'ri tarjimasi va leksik mosligi nafaqat lug'aviy ma'nolarni, balki ularning ilmiy kontekstda qanday qo'llanilishini ham hisobga olishni talab qiladi. Shu bois, tarjima jarayonida interdisciplinar yondashuv – ya'ni, ham tilshunos, ham sohaga ixtisoslashgan mutaxassis ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, mexanika muhandisligi terminologiyasining o'zbek tiliga moslashuvi, tabiiyki, tilning o'ziga xos madaniyati va ijtimoiy kontekstidan ham ta'sirlanadi. O'zbek tili o'z tarixiy va madaniy kontekstiga ega bo'lib, ba'zi ilmiy atamalarni boshqa tillardan moslashtirishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Biroq, ilmiy-texnik sohadagi global integratsiya tufayli ingliz tilidan olingan atamalar ko'plab yo'nalishlarda o'zbek tiliga singib bormoqda. Masalan, "computer-aided design (CAD)" atamasi o'zbek tilida "kompyuter yordamida dizayn qilish" deb tarjima qilinadi, biroq amaliyotda u ko'pincha asl shaklida ishlatiladi, chunki bu atama global miqyosda keng qo'llaniladi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mexanika muhandisligi terminologiyasining lingvistik xususiyatlari ko'plab o'zgarishlarni va zamonaviy talablarni hisobga olishni taqozo etadi. Har ikkala tilning o'ziga xos grammatik, leksik va semantik xususiyatlari mexanika muhandisligi sohasida izchil, aniq va samarali terminologiyani shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.


Texnologiya va ilm-fan taraqqiyotiga qarab til va terminologiyaning doimiy o'zgarishlarga moslasha olishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ingliz tili global ilmiy-texnik til sifatida o'z mavqeini mustahkamlab borayotgan bir vaqtda, o'zbek tilining terminologik jihatdan rivojlanishi, moslashtirish va lokalizatsiya jarayonlari soha mutaxassislari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 1967. – 536 с.
2. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1982. – 192 с.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1939. – 246 с.
4. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 327 с.
5. Татарinov В.А. Теория терминоведения. – М.: Наука, 1996. – 398 с.
6. Мельничук О.С. (ред.) Этимологический словарь украинского языка: В 7 т. Т. 2: Д – Копцы. – Киев: Наукова думка, 1985. – 512 с.



7. Морковкин В.В. Идеографические словари. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1970. – 240 с.
8. Садохин А.П. Введение в теорию межкультурной коммуникации. – М.: Юрайт, 2014. – 352 с.
9. Рудяков О.М. Системный опис лексико-семантической группы (ядро, периферия, «среда»). – Мовознавство, №2, 1987. – С. 23–27.
10. Скворцов Л.И. Вопросы терминологии и терминотворчества в эпоху НТР. // Терминология и культура речи. – М.: Наука, 1981. – С. 5–28.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100